



O‘ZBEKISTONNING SHIMOLIY-SHARQIY OSIYO DAVLATLARI BILAN SAVDO-IQTISODIY MUNOSABATLARI

Tulanbayeva Feruza Taxirovna,

Tashqi iqtisodiy faoliyat kafedrası talabasi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

E-mail: feruzatulanbaeva2005@gmail.com

Telefon: +998 97 721 77 30

Ilmiy rahbar: Narov Ulug‘bek Iriskulovich,

Iqtisodiyot fanlari doktori,

Tashqi iqtisodiy faoliyat kafedrası professori

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Shimoliy-Sharqiy Osiyo (SHOM) mintaqasining geoiqtisodiy xususiyatlari, global iqtisodiyotdagi o‘rni va mintaqaviy integratsiya jarayonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, O‘zbekistonning Xitoy, Yaponiya va Koreya Respublikasi bilan savdo-iqtisodiy munosabatlari eksport tarkibi asosida qiyosiy baholanadi. Tadqiqot natijalari SHOM mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorlikda ayrim tarkibiy nomutanosibliklar mavjudligini, O‘zbekiston eksportida xomashyo va yarim tayyor mahsulotlar ustunligini hamda ayrim yo‘nalishlarda eksport diversifikatsiyasi tendensiyalari shakllanayotganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Shimoliy-Sharqiy Osiyo, geoiqtisodiyot, mintaqaviy integratsiya, global qiymat zanjirlari (GVC), qo‘shilgan qiymatdagi savdo (TiVA), tashqi savdo, eksport diversifikatsiyasi, O‘zbekiston, Xitoy, Yaponiya, Koreya Respublikasi.



Kirish

Globalashuv sharoitida mintaqaviy iqtisodiy markazlarning ahamiyati ortib bormoqda. Shimoliy-Sharqiy Osiyo jahon iqtisodiyotining eng yirik va dinamik geoiqtisodiy hududlaridan biri bo'lib, yuqori darajadagi sanoatlashuv, texnologik yetakchilik hamda integratsiyalashgan ishlab chiqarish tizimi bilan ajralib turadi. Xitoy, Yaponiya va Koreya Respublikasi global qiymat zanjirlarida (GVC) muhim o'rin egallab, xalqaro savdo va investitsiya oqimlarining strategik yo'nalishlarini belgilaydi [3].

Tadqiqotning dolzarbligi SHOM mintaqasining global iqtisodiy jarayonlarga ta'siri kuchayib borayotgani hamda O'zbekistonning ushbu davlatlar bilan savdo aloqalarida tarkibiy nomutanosibliklar va eksport diversifikatsiyasi darajasining yetarli emasligi bilan izohlanadi. SHOM bilan iqtisodiy hamkorlikni tahlil qilish O'zbekistonning global ishlab chiqarish zanjirlaridagi o'rnini aniqlash va tashqi savdo strategiyasi samaradorligini baholash nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi Shimoliy-Sharqiy Osiyo mintaqasining geoiqtisodiy tizimini tahlil qilish hamda O'zbekistonning SHOM davlatlari bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarining tarkibiy xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- SHOM mintaqasining geoiqtisodiy va geosiyosiy xususiyatlarini o'rganish;
- mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlarini tahlil qilish;
- Xitoy, Yaponiya va Koreya Respublikasi bilan savdo tuzilmasini qiyosiy baholash;
- O'zbekiston eksportining tarkibiy xususiyatlarini aniqlash.

Tadqiqot metodologiyasi tizimli yondashuv, qiyosiy iqtisodiy tahlil va statistik ma'lumotlarni umumlashtirish usullariga asoslanadi. Tadqiqotda Jahon banki, OECD, WTO, IMF, UN Comtrade, ITC Trade Map hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlaridan foydalanildi



[1–8]. Shuningdek, eksport tarkibini baholashda strukturaviy va sektoral tahlil usullari qo‘llanildi.

1. Shimoliy-Sharqiy Osiyo mintaqasining geoiqtisodiy va geosiyosiy xususiyatlari

Shimoliy-Sharqiy Osiyo (SHOM) Osiyo-Tinch okeani mintaqasining eng muhim geoiqtisodiy markazlaridan biri hisoblanadi. Mintaqa tarkibini belgilashga doir turli ilmiy yondashuvlar mavjud. Keng talqinga ko‘ra, SHOM tarkibiga Xitoy, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Koreya Xalq Demokratik Respublikasi, Mo‘g‘uliston, Rossiyaning Uzoq Sharq hududlari, shuningdek Tayvan va Gonkong kiradi. Tor talqinda esa mintaqa asosan Xitoyning shimoli-sharqiy hududlari, Yaponiya, Koreya Respublikasi, KXDR, Mo‘g‘uliston hamda Rossiyaning Uzoq Sharq qismlarini qamrab oladi. Barcha yondashuvlarda SHOM o‘zaro iqtisodiy va siyosiy bog‘liqlik darajasi yuqori bo‘lgan hudud sifatida e’tirof etiladi [2].

Mintaqaning geoiqtisodiy ahamiyati uning yuqori demografik salohiyati, sanoatlashuv darajasi va texnologik yetakchiligi bilan belgilanadi. 2025-yilda Xitoy aholisi 1,405 milliard kishini tashkil etib, dunyodagi eng yirik mehnat va iste’mol bozorini shakllantirdi [1]. Yaponiya aholisi taxminan 123 million, Koreya Respublikasi aholisi esa 51,7 million kishini tashkil etadi [1]. Shu bilan birga, Yaponiya va Koreya Respublikasida aholining qarishi hamda tug‘ilish darajasining pasayishi uzoq muddatli demografik muammolar sifatida iqtisodiy rivojlanishga ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu jarayonlar mehnat resurslari tarkibi va iqtisodiy o‘sish dinamikasiga sezilarli bosim yaratadi.

1-jadval. "Shimoliy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari (2025)"

Ko‘rsatkich	Xitoy	Yaponiya	Koreya Respublikasi
Aholi (mln)	1405	123	51.7
YaIM PPP (trln \$)	43.49	6.92	3.49
Asosiy ixtisoslashuv	ishlab chiqarish	texnologiya	innovatsiya



Manba: UN Comtrade Database hamda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

SHOM mamlakatlari iqtisodiy rivojlanish darajasi, resurs ta'minoti va texnologik imkoniyatlari jihatidan sezilarli farqlarga ega bo'lsa-da, ular o'rtasidagi ishlab chiqarish va savdo aloqalari yuqori darajada integratsiyalashgan. Xitoy mintaqaning yirik ishlab chiqarish va iste'mol markazi bo'lsa, Yaponiya va Koreya Respublikasi yuqori texnologiyali ishlab chiqarish hamda innovatsion iqtisodiyot yetakchilari hisoblanadi.

Geosiyosiy jihatdan SHOM iqtisodiy hamkorlik va siyosiy raqobat bir vaqtning o'zida namoyon bo'ladigan murakkab makon hisoblanadi. Hududiy nizolar, tarixiy ziddiyatlar va xavfsizlik muammolari saqlanib qolayotgan bo'lsa-da, iqtisodiy manfaatlarning o'zaro bog'liqligi integratsion jarayonlarning davom etishiga xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda mintaqaviy integratsiya asosan Xitoy, Yaponiya va Koreya Respublikasidan iborat "katta uchlik" doirasida rivojlanmoqda. Ushbu davlatlar o'rtasida erkin savdo hududini shakllantirishga qaratilgan uch tomonlama kelishuv bo'yicha muzokaralar 2012-yildan buyon davom etmoqda. Siyosiy va iqtisodiy tafovutlar tufayli jarayon sekinlashgan bo'lsa-da, ushbu tashabbus SHOMdagi institutsional integratsiyaning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda [2].

Mintaqaviy hamkorlikning eng muhim natijalaridan biri 2022-yilda Regional Comprehensive Economic Partnership (RCEP) kelishuvining kuchga kirishi bo'ldi. Ushbu kelishuv jahon yalpi ichki mahsuloti va xalqaro savdoning qariyb 30 foizini qamrab oluvchi yirik iqtisodiy makonni shakllantirdi [4]. Natijada SHOM mamlakatlarining Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi iqtisodiy mavqei yanada mustahkamlandi.

Mintaqalararo savdo ulushi davlatlar kesimida turlicha namoyon bo'ladi. Xitoy tashqi iqtisodiy aloqalarining global diversifikatsiyasi natijasida mintaqaga qaramligini qisman kamaytirgan bo'lsa, Yaponiya va Koreya Respublikasi uchun



SHOM hanuzgacha asosiy tashqi iqtisodiy hamkorlik hududlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Umuman olganda, Shimoliy-Sharqiy Osiyo yuqori demografik salohiyat, rivojlangan sanoat bazasi va chuqurlashib borayotgan iqtisodiy integratsiyaga ega geoiqtisodiy makon sifatida namoyon bo'ladi. Uning global iqtisodiyotdagi o'rni nafaqat savdo hajmlari, balki xalqaro iqtisodiy jarayonlarga ta'sir kuchi bilan ham belgilanadi.

2. Mintaqa mamlakatlari rivojlanishining tashqi iqtisodiy omillari

SHOM mamlakatlari iqtisodiy rivojlanish darajasi va tashqi iqtisodiy salohiyati jihatidan jahonning yetakchi iqtisodiy markazlari qatoriga kiradi. 2025-yilda sotib olish qobiliyati pariteti (PPP) bo'yicha Xitoy yalpi ichki mahsuloti 43,49 trln AQSh dollarini tashkil etib, mintaqada yetakchi mavqeini saqlab qoldi [5]. Yaponiya va Koreya Respublikasining YaIM hajmi mos ravishda 6,92 trln va 3,49 trln AQSh dollarini tashkil etdi [5].

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TXYI) oqimlari bo'yicha ham Xitoy yetakchi o'rinni egallaydi. Shu bilan birga, aholi jon boshiga YaIM ko'rsatkichlari Yaponiya va Koreya Respublikasida yuqoriroq bo'lib, bu ularning yuqori texnologik rivojlanish darajasi va samarali iqtisodiy tuzilmasini aks ettiradi [5].

Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri investitsion hamkorlikni institutsional asosda qo'llab-quvvatlash mexanizmlaridir. Dastlab SHOM mamlakatlari o'rtasidagi investitsion hamkorlik ikki tomonlama kelishuvlar asosida shakllangan bo'lsa, 2012-yilda uch tomonlama investitsiya bitimining imzolanishi bilan u yangi bosqichga ko'tarildi.

Mazkur kelishuv investorlar uchun milliy rejim tamoyili, kapital harakatining erkinligi, investitsiyalarni himoya qilish hamda investitsion nizolarni hal etish mexanizmlarini takomillashtirishni nazarda tutadi [2]. Natijada mintaqada investitsion muhitning barqarorligi va prognoz qilinuvchanligi sezilarli darajada oshgan.



SHOM mamlakatlarida ishlab chiqarish zanjirlari yuqori darajada ixtisoslashgan. Yaponiya yuqori texnologiyali komponentlar va ilmiy sig‘imli mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo‘lsa, Koreya Respublikasi elektronika va murakkab sanoat mahsulotlari segmentida yetakchilik qiladi. Xitoy esa global ishlab chiqarish tizimining asosiy markazi sifatida yakuniy mahsulotlar ishlab chiqarish va yig‘ish jarayonlarida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Global qiymat zanjirlari (Global Value Chains, GVC) zamonaviy xalqaro ishlab chiqarish tizimining asosiy tarkibiy elementi hisoblanadi. OECD va JST tomonidan ishlab chiqilgan TiVA (Trade in Value Added) metodologiyasiga ko‘ra, eksportda GVC ishtiroki Koreya Respublikasida 58 %, Yaponiyada 40 %, Xitoyda esa 35 % ni tashkil etadi [2;3]. Bu Koreya Respublikasi iqtisodiyotining eng chuqur integratsiyalashgan tizimga ega ekanini ko‘rsatadi.

SHOM mamlakatlari o‘rtasidagi savdo aloqalari 1990-yillardan boshlab jadal rivojlanib kelmoqda. Xitoy, Yaponiya va Koreya Respublikasi o‘rtasidagi savdo oqimlari mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning asosiy tayanchini tashkil etadi. Xususan, Koreya Respublikasining Xitoy bozoriga yuqori darajadagi iqtisodiy bog‘liqligi saqlanib qolmoqda.

2020–2024-yillar davomida mintaqa ichki savdo ulushi 35,8 % dan 40,1 % gacha oshdi [2]. Bu SHOM doirasida iqtisodiy integratsiya jarayonlarining chuqurlashib borayotganini tasdiqlaydi.

3. O‘zbekiston Respublikasi va SHOM mamlakatlari o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlar

O‘zbekiston Respublikasining Xitoy (XXR), Yaponiya va Koreya Respublikasi bilan savdo-iqtisodiy munosabatlari SHOM doirasida tashqi iqtisodiy aloqalarning uchta institutsional va tarkibiy jihatdan farqlanuvchi modelini namoyon etadi. Ushbu hamkorlikning o‘ziga xosligi nafaqat savdo hajmlari, balki eksport tarkibining sifati, qo‘shilgan qiymat darajasi hamda xalqaro ishlab chiqarish zanjirlaridagi ishtiroki bilan belgilanadi.



2-jadval. O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasida SHOM mamlakatlari dinamikasi (2010–2024-yillar)

Yil	Xitoy			Koreya Respublikasi			Yaponiya		
	Tovar aylanmasi	Eksport	Import	Tovar aylanmasi	Eksport	Import	Tovar aylanmasi	Eksport	Import
2010	2183,9	931,8	1252,0	1621,6	164,0	1457,6	122,5	16,5	106,0
2011	2699,5	1302,2	1397,2	1628,8	142,5	1486,3	163,2	15,7	147,5
2012	3357,9	1463,1	1894,8	2142,4	113,7	2028,7	217,2	11,5	205,7
2013	4510,5	2055,4	2455,1	2121,6	86,5	2035,1	215,2	10,3	204,9
2014	4520,4	2123,6	2396,8	2035,7	159,6	1876,1	190,4	15,9	174,5
2015	4730,4	2472,2	2258,1	1739,6	176,4	1563,2	255,7	10,4	245,2
2016	4253,6	1999,3	2254,3	1070,4	201,8	868,7	264,1	15,8	248,3
2017	4754,2	2025,5	2728,7	1387,6	143,3	1244,3	166,2	14,5	151,7
2018	6433,5	2875,4	3558,1	2159,2	108,7	2050,5	707,5	18,8	688,7
2019	7637,3	2528,7	5108,6	2767,7	102,9	2664,8	419,7	33,9	385,8
2020	6438,3	1937,1	4501,2	2150,7	51,3	2099,4	209,7	10,1	199,6
2021	7452,5	2529,1	4923,4	1898,8	57,7	1841,1	170,6	13,7	156,9
2022	9059,7	2632,0	6427,7	2342,6	42,8	2299,8	233,5	14,5	219,0
2023	13825,7	2486,6	11339,1	2368,0	54,5	2313,5	236,8	17,3	219,5
2024	12673,5	2103,9	10569,6	2021,3	48,8	1972,5	388,6	16,7	371,9

Manba: muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (Stat.uz) ma’lumotlari asosida.

O‘zbekiston tashqi savdosining SHOM mamlakatlari bilan yo‘nalishlarida tarkibiy farqlanish yaqqol namoyon bo‘lib, bu holat mamlakatning global mehnat taqsimotidagi o‘rni turli darajalarda aks ettiradi.

3.1. Xitoy: resurs va oraliq mahsulotlarga asoslangan model

Xitoy Xalq Respublikasi O‘zbekistonning eng yirik savdo hamkori hisoblanadi. 2020–2024-yillar davomida Xitoy yo‘nalishidagi eksport tarkibi asosan xomashyo va oraliq mahsulotlarga asoslangan holda shakllangan. 2024-yil holatiga ko‘ra, oraliq mahsulotlar ulushi 48,0 %, xomashyo esa 39,2 % ni tashkil etgan bo‘lsa, tayyor mahsulotlar ulushi 0,5 % darajasida qolgan [6;7].

Mazkur tarkib O‘zbekiston eksportining Xitoy bozorida past va o‘rta qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ustunligida ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, eksport hajmining o‘sishi tarkibiy diversifikatsiya jarayonlari bilan bir xil sur‘atda kechmayotgani kuzatiladi.



Natijada Xitoy yoʻnalishi Oʻzbekiston uchun global ishlab chiqarish zanjirlarida xomashyo yetkazib beruvchi periferiya modeli sifatida shakllangan.

3.2. Yaponiya: diversifikatsiya va qoʻshilgan qiymatni oshirish modeli

Yaponiya bilan savdo aloqalari nisbatan kichik hajmga ega boʻlsa-da, tarkibiy jihatdan eng ijobiy dinamik oʻzgarishlar aynan shu yoʻnalishda kuzatiladi. 2020–2024-yillar davomida xomashyo ulushi 62,0 % dan 44,5 % gacha kamaygan, tayyor mahsulotlar ulushi esa 5,0 % dan 20,0 % gacha oshgan [6;7].

Ushbu tendensiya Oʻzbekiston eksportining Yaponiya yoʻnalishida yuqori qoʻshilgan qiymatli va texnologik murakkab mahsulotlar ulushi bosqichma-bosqich ortib borayotganini koʻrsatadi. Bu jarayon eksport tarkibining modernizatsiyalashuvi va ishlab chiqarish tuzilmasining diversifikatsiyalashuvini aks ettiradi.

Shu jihatdan Yaponiya yoʻnalishi Oʻzbekiston tashqi savdosida eng progressiv va transformatsiyaga yoʻnaltirilgan model sifatida baholanadi.

3.3. Koreya Respublikasi: xomashyo ustunligi saqlanib qolgan model

Koreya Respublikasi bilan savdo-iqtisodiy aloqalarda 2020–2024-yillar davomida eksport tarkibining sezilarli transformatsiyasi kuzatilmagan. Aksincha, xomashyo ulushining 33,9 % dan 45,4 % gacha oshishi ushbu yoʻnalishda resurslarga asoslangan eksportning kuchayganini koʻrsatadi [6;7].

Oraliq mahsulotlar ulushi qisqargan boʻlsa-da, tayyor mahsulotlar ulushidagi oʻzgarish eksport tarkibini sifat jihatidan tubdan oʻzgartirish uchun yetarli emas.

Natijada Koreya Respublikasi yoʻnalishi Oʻzbekiston tashqi savdosida xomashyo ustun boʻlgan va tarkibiy transformatsiyasi cheklangan model sifatida shakllangan.

3.4. Qiyosiy tahlil va tizimli xulosa

2024-yil yakunlariga koʻra, Oʻzbekistonning SHOM mamlakatlari bilan eksport tarkibi uch xil strukturaviy modelni namoyon etadi:



- **Xitoy yo‘nalishi** — xomashyo va oraliq mahsulotlar ustun bo‘lgan ishlab chiqarish zanjiriga bog‘langan periferiya modeli
- **Koreya Respublikasi yo‘nalishi** — xomashyo ustunligi saqlanib qolgan, transformatsiyasi sust model
- **Yaponiya yo‘nalishi** — diversifikatsiyalashgan, yuqori qo‘shilgan qiymatga yo‘naltirilgan va modernizatsiyalashayotgan model [6;7].

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, SHOM mamlakatlari bilan savdo aloqalari O‘zbekiston uchun yagona model emas, balki turli darajadagi integratsiya va sanoat transformatsiyasi jarayonlarini ifodalaydi. Ayniqsa, Yaponiya yo‘nalishi eksportni modernizatsiya qilish va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlarga o‘tish nuqtayi nazaridan eng istiqbolli model sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xulosa

Tadqiqot natijalari Shimoliy-Sharqiy Osiyo mintaqasi zamonaviy jahon iqtisodiyotining eng muhim geoiqtisodiy markazlaridan biri ekanligini tasdiqladi. Mintaqa mamlakatlari yuqori darajadagi sanoatlashuv, texnologik rivojlanish va global qiymat zanjirlariga chuqur integratsiyalashganligi bilan ajralib turadi. RCEP kabi mintaqaviy tashabbuslar esa SHOMning xalqaro savdo va investitsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda.

O‘zbekistonning Xitoy, Yaponiya va Koreya Respublikasi bilan savdo-iqtisodiy munosabatlari tahlili ushbu yo‘nalishlar o‘rtasida sezilarli tarkibiy tafovutlar mavjudligini ko‘rsatdi. Xitoy va Koreya Respublikasi bilan savdoda xomashyo hamda oraliq mahsulotlar ulushi yuqori bo‘lib qolayotgan bo‘lsa, Yaponiya yo‘nalishida eksport tarkibining diversifikatsiyalashuvi va tayyor mahsulotlar ulushining ortishi kuzatilmoqda. Bu esa Yaponiya bilan hamkorlik O‘zbekiston eksportining sifat jihatdan modernizatsiyalashuvi uchun nisbatan qulay imkoniyatlar yaratishini anglatadi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari O‘zbekistonning SHOM mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini



kengaytirish, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish hamda global ishlab chiqarish zanjirlaridagi ishtirokini chuqurlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Ushbu yo'nalishlarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar mamlakat eksport salohiyatini oshirish, tashqi savdo tarkibini takomillashtirish va xalqaro raqobatbardoshlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. World Bank. World Development Indicators Database. Washington, DC: World Bank, 2025.
2. Jahon savdo tashkiloti. *World Trade Statistical Review 2025*.
3. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD). *Qo'shilgan qiymatdagi savdo (TiVA) bo'yicha yangilangan prognozlar, 2023-yil*.
4. Osiyo taraqqiyot banki. *RCEP bo'yicha sharh*.
5. Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF). *World Economic Outlook Database, 2025-yil oktabr* [Onlayn]. Vashington, DC: IMF, 2025.
6. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. *UN Comtrade ma'lumotlar bazasi*.
7. Xalqaro savdo markazi (ITC). *Trade Map ma'lumotlar bazasi*.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. *O'zbekiston Respublikasining tashqi savdosi bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar*.